

8-10-2019

MECHANISMS OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS ENVIRONMENTAL EDUCATIO

Saodat Usubkhonovna Sulaymonova

Namangan State University Applicant of the Department of Pedagogy and psychology

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Sulaymonova, Saodat Usubkhonovna (2019) "MECHANISMS OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS ENVIRONMENTAL EDUCATIO," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 4 , Article 57.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/57>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

MECHANISMS OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS ENVIRONMENTAL EDUCATIO

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

UZLUKSIZ EKOLOGIK TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH MEKANIZMLARI

Сулаймонова Саодат Усубхоновна

Наманган давлат университети

Педагогика ва психология кафедрасининг мустақил изланувчиси

Аннотация: Мақолада умумтаълим мактабларида узлуксиз экологик таълимни ривожлантириш йўлида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари хусусида сўз юритилиб, ўқувчилар онгида экологик билим ва кўникмаларни шаклланишида замонавий усулларида кенг фойдаланиш механизмлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Узлуксиз экологик таълим, педагогик технологиялар, умумтаълим мактаблари, инфографика, экологик таълим тарбия, экологик маданият, табиатни муҳофаза қилиш, атроф муҳит муҳофазаси.

МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В НЕПРЕРЫВНОМ ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИЕ

Сулаймонова Саодат Усубхоновна

Наманганский государственный университет

соискатель кафедры Педагогика и психологии

Аннотация: В статье обсуждая вопросы использования современных педагогических технологий в развитии непрерывного экологического образования в общеобразовательных школах, раскрыты механизмы широкого использования передовых методов в формировании экологических знаний и привычек в сознания учащихся.

Ключевые слова: Непрерывное экологическое образование, педагогические технологии, общеобразовательные школы, инфографика, экологическое образование и воспитание, экологическая культура, охрана природы защита окружающей среды.

MECHANISMS OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS ENVIRONMENTAL EDUCATION

Sulaymonova Saodat Usubkhonovna

Namangan State University

Applicant of the Department of Pedagogy and psychology

Abstract: In the article, discussing the use of modern pedagogical technologies in the development of continuous environmental education in secondary schools, disclosed mechanisms for the wide use of advanced methods in the formation of environmental knowledge and awareness in students' minds.

Keywords: Continuous environmental education, pedagogical technologies, comprehensive schools, infographics, environmental education and upbringing, ecological culture, environmental protection, environmental protection.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin xalq ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda, ya'ni ta'limni dunyo miqyosidagi standartlar


talabiga javob beradigan darajaga ko'tarish uchun ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar-ni tadbiq qilish masalasiga aso-siy muammo sifatida qaralmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini olib borayotgan pedagog birinchi navbatda "pedagogik texnologiya" tushunchasining mazmun mohiyatini tusunib olishi lozim. Pedagogik texnologiya terminologiyasining mazmun va mohiyati bilan xorij va respublika mizning bir qator taniqli olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Rossiya pedagoglari: V.P.Bespalko, V.S. Bezrukova, B.L.Farberman, M.V.Klarin, M.J. Aristanovlar tomonidan ilmiy goyalar taklif qilingan bolsa, o'zbekistonlik olimlardan R.X.Jo'raev, U.N. Nishonaliev, N.S. Sayidaxmedov va S.Xaydarovlar ham o'z ilmiy tadqiqotlarida "pedagogik texnologiyalar va unda zamonaviy usullardan keng foydalanish" tushunchalarining ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ekologik bilim va ko'nikmalarni ta'lim muassasalari jarayonida qo'llash va o'quvchilar ongida shakllantirish hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada yurtimizda ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, "Uzluksiz ekologik ta'lim kontseptsiyasi" yaratilgan va chop etilgan [1]. Unda xalqaro va hududiy ekologik muammolar asosida uzluksiz ekologik ta'limning maqsadi, vazifalari ko'rsatib berilgan. Jumladan, boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim berish muammolari hal etilgan. Ekologiyadan Davlat ta'lim standarti ishlab chiqilgan [2]. Standartda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan:

- ✓ ekologiya muammolarini bilish davr taqozosi ekanligi;
- ✓ ekologik ta'lim mazmunini belgilash;
- ✓ dars (ma'ruza) hamda auditoriyadan tashqari vaqtlarda ekologik ta'limni amalga oshirish yo'llari;
- ✓ ekologik ta'limda predmetlararo aloqani amalga oshirish.

Davlat ta'lim standartda o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarda: tabiatshunoslik, ona tili, jismoniy tarbiya, o'qish, mehnat, tasviriy san'at yo'nalishidagi ekologiyaga oid tushunchalarga alohida urg'u beriladi. Unda atrof muhitni himoya qilish va inson ekologiyasiga oid bilimlarning egallanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda shaxsning faqat jismoniy holatidagi mo'tadillik va barqarorligigina emas, balki ekologik ma'naviyati, tabiat, atrof-muhit, boshqa kishilar bilan axloqiy munosabatlariga ham e'tibor qaratilgan. Ekologik bilim turli o'quv predmetlari mazmuniga singdirilishi taqozo qilinadigan malaka oshirishda mazkur standart talablarini hisobga olish zarur.

Ekologik mazmundagi ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda metodik ishlar ko'lamini kengaytirish, mazkur yo'nalishda tayyorlangan ilmiy ishlar, o'qituvchilar uchun havola etiladigan metodik ishlanma va tavsiyalarning keng yo'lga qo'yilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirga qadar ekologiyadan integrativ dastur yaratildi [3]. Unda o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan. Masalan, o'simliklar va hayvonot olami, suv havzalari, tuproq qatlami, atmosferaga insonning ijobiy va salbiy ta'siri; O'rta Osiyo olimlari ishlarida o'simliklarning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati, rekreatsiya zonalarida inson xulqi va boshqalar. Ekologiya kabinetlarini tashkil



etish va jihozlash XTV tasarrufidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari uchun o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, ekologik bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, dars vaqtini tejash, o'rganilayotgan materialning o'zlashtirilishini mustahkamlash uchun ekologik kabinet jihozlaridan rang-barang didaktik vositalar tizimi sifatida foydalanish zarur. Ekologik ta'limda noa'naviy dars o'tish texnologiyalaridan amaliyotda qo'llash va o'rganishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarildi va hal etildi:

- ✓ Barqaror rivojlanish uchun ta'limni ekologik xususiyatlarini o'rganish;
- ✓ Uzluksiz ekologik ta'limning dolzarb muammolarini o'rganish;
- ✓ Barqaror rivojlanish uchun ta'limda yangi metodlarni ishlab chiqish;
- ✓ Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarinnig ahamiyatini o'rganish;
- ✓ Yuksak ekologik madaniyat - barqaror rivojlanish garovi ekanligini asoslash.

Hozirgi kunda faolyat olib borayotgan umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya fanlarining negizida oquvchilar uchun bir qator rasmlar va tushunchalar jamlammasi uyginligida zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlangan infografikalarni ko'rgazmali qurollar sifatida dars jarayonlarida foydalanish tavsiya etiladi.

1-Infografika: Sog'lom oila muhitida ekologik madaniyatni shakllantitsh

Mazkur bayon qilayotgan infografika (ko'rgazmali qurol) yordamida sog'lom oila muhitida ekologik madaniyatni shakllantirishda ota-onalar farzandlarini tabiatga bo'lgan mehrini yanada ortishi, kuzatish, taqqoslash, xulosa chiqarishga undaydigan usul va vositalardan foydalanishning ahamiyati katta bo'lib, bu o'z navbatida kelajak avlodlarimizni tabiat va uning resurslariga oqilona foydalanishiga olib keladi. O'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazish jarayonida ekologik tarbiya ishlarini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, bunda eng avvalo, o'quvchilarda tabiatning bir bo'laki bo'lgan atrof-muhitning turli ob'ektlariga nisbatan ekologik yondashuvni shakllantirish va ko'nikmalarini oshirish talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni estetik qarashlarini shakllantirishda maktab hududini obodonlashtirish, ko'chat daraxtlar ekish, qushlar va hayvonlar uchun uyalar yasash, ariqlarni axlat chiqindilaridan tozalalash kabi amaliy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'z navbatida atrof-muhit va unda ro'y berayotgan hodisalarni anglashga emotsional-hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda, asta-sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash, sifat va mustaqil munosabat shakllanib, ularning ruhiyatida saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini hisobga olib, oila bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish o'z navbatida bolalarning kuzatuvchanligini, o'rab turgan tabiiy muhitdan estetik zavqlanishini, tabiat qo'ynida o'zlarini qanday tutish qoidalari va odobini shakllantirishga, ularning sog'lom, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

References:

1. Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. – T.: "Bioekosan", 1999. –16 b.
2. Ekologiyadan davlat ta'lim standarti // "Xalq ta'limi". 2000. 1-son. -79 82 b.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy o'quv fanlarni o'qitishda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning integrativ dasturi. –T.: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, RTM., 2000. –34 b.